

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI KONSEPSIYASINI TASDIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas‘ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa‘y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamogda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son **Farmoniga** muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida:

1. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan:

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) **1-ilovaga** muvofiq;

2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) **2-ilovaga** muvofiq;

2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda — “Yo‘l xaritasi”) **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Konsepsiya, Strategiya va “Yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta‘minlash yuzasidan mas‘uliyat jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi davlat organlarining shaxsan birinchi rahbarlariga yuklatilsin.

2. Konsepsiya va Strategiyani bosqichma-bosqich amalga oshirishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

Vazirlar Mahkamasi (A.N. Aripov) — 2023 — 2025-yillarda har yili jamoat xavfsizligini ta‘minlashning samarali tizimini joriy qilish bo‘yicha aniq mexanizmlarni nazarda tutuvchi manzilli chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin hamda ijrosini qat‘iy nazoratga olsin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi (V.V. Maxmudov) — har yarim yilda davlat organlari rahbarlarining “Yo‘l xaritasi” va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan manzilli chora-tadbirlar dasturlari ijrosi, shu jumladan mazkur dasturlarning hududlar kesimida amalga oshirilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish va tanqidiy muhokama qilish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

3. Belgilansinki:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi;

2022-2023-yillarda tuman ichki ishlar organlari tarkibidagi konvoy bo‘linmalari bosqichma-bosqich viloyat ichki ishlar organlarining bevosita bo‘ysunuviga o‘tkazilib, yagona boshqaruv tizimi asosida tumanlararo xizmat o‘tash tamoyiliga muvofiq qayta tashkil etiladi.

Milliy gvardiya (R.M. Jo‘rayev):

Adliya vazirligi (R.Q. Davletov) bilan birgalikda bir oy muddatda jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi bo'yicha qonun loyihasini kiritgin;

bir oy muddatda hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jamoat tartibini saqlash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 2022-yilda Namangan, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlaridagi, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi Milliy gvardiyaning harbiy qismlarida muddatli harbiy xizmatni kengaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar kiritgin.

Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov, B.T. Abdullayev):

Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda hududlarning kriminogen vaziyati va aholi zichligidan kelib chiqqan holda tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarini tashkil etish me'yorlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yil 1-martga qadar tasdiqlangan me'yorlarga asosan mahalliy budjet hisobidan kamida bittadan tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarini tashkil etish choralarini ko'rsin;

2022-yil 1-mayga qadar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ichki ishlar organlari konvoy faoliyatiga konvoy ostidagi shaxslarni elektron brasletlar orqali nazorat qilish tizimini joriy etsin.

4. Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Jamoat xavfsizligi departamenti (keyingi o'rinlarda — Departament) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Quyidagilar Departamentning asosiy vazifalari etib belgilansin:

ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, kompleks tahlil qilish hamda ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini samarali boshqarish choralarini ko'rish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta'minlash, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

voyaga yetmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish;

ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish.

Ichki ishlar vazirining o'rinbosari B.T. Abdullayev zimmasiga jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi joriy etilayotgan boshqaruv tizimini samarali yo'lga qo'yish hamda Departamentning asosiy vazifalari o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Departament Strategiya, "Yo'l xaritasi" va Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid chora-tadbirlar dasturlarining amalga oshirilishi doirasida:

muntazam monitoring olib borib, belgilangan chora-tadbirlar sifatli va o'z vaqtida ijro etilishi bo'yicha taklif va tavsiyalarni tegishli davlat organlariga kiritadi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida erishilgan natijalar va aniq ko'rsatkichlar aks ettirilgan batafsil axborotni doimiy ravishda keng jamoatchilikka yetkazib boradi;

har chorakda umumlashtirilgan hisobotni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi hamda har yarim yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi muhokamasiga taqdim qiladi.

6. Belgilansinki:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari majlislarida hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining o'rinbosarlari — jamoat

xavfsizligi xizmati boshliqlari tomonidan har chorakda jamoat xavfsizligi yuzasidan hisobot berish, shuningdek, mazkur yo'nalishda ko'rilayotgan choralarning natijalarini tanqidiy muhokama qilib, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish amaliyoti joriy etiladi;

respublikada jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini umumiy muvofiqlashtirish vazifasi Departament zimmasiga yuklatiladi hamda uning qoshida yagona idoralararo boshqaruv shtabi tashkil etiladi;

Departament boshlig'i ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoat xavfsizligini ta'minlash tadbirlarining yagona muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi;

Departament va uning hududiy bo'linmalari tarkibiga jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligi va probatsiya xizmatlari kiritiladi.

Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov, B.T. Abdullayev):

vakolatli davlat organlari bilan birgalikda ikki oy muddatda alohida sharoitlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mavjud kuch va vositalarni tezkor va yagona idoralararo boshqarish tartibini ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin;

ichki ishlar organlari profilaktika va probatsiya inspektorlari, patrul-post va yo'l-patrul xizmati xodimlarining faoliyatini baholash tartibini tanqidiy qayta ko'rib chiqsin va samaradorlik indikatorlarini o'z ichiga oluvchi reyting tizimini joriy etsin.

7. Mahallada jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar maqbullashtirilsin va ularning yagona ro'yxati [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

profilaktika inspektorlarini ularning vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga jalb qilish hamda faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlanadi;

2024-yil 1-sentabrdan e'tiboran Toshkent shahar ichki ishlar organlari, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab qolgan hududiy ichki ishlar organlari profilaktika katta inspektori lavozimlariga faqat oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar tayinlanadi;

profilaktika inspektorlari uchun Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi sirtqi ta'limiga qabul qilinadigan xodimlar umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida qabul kvotasi ajratiladi;

2022/2023 o'quv yilidan boshlab, faoliyatida yuqori natijalarga erishgan Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar organlaridan ikkitadan, qolgan hududiy ichki ishlar organlaridan bittadan profilaktika inspektori Departament boshlig'i taqdimnomasiga asosan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining sirtqi ta'limiga imtihonlarsiz qabul qilinadi hamda bepul o'qitiladi.

Ichki ishlar vazirligi (B.T. Abdullayev, A.I. Ikramov) ikki oy muddatda profilaktika inspektorlarining hududda, xususan shahar va qishloq sharoitida faoliyat olib borishi bo'yicha aniq mexanizmlarni nazarda tutuvchi modellarni amaliyotga joriy etish choralari ko'rsin va ular bo'yicha o'qitish tizimini yo'lga qo'ysin.

8. Belgilansinki:

probatsiya inspektorlarining faoliyati hududiy profilaktika inspektorlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etiladi;

probatsiya inspektorlari zimmasiga profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagilarning shaxsini o'rganish va ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarida profilaktika inspektorlariga amaliy-uslubiy ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklanadi.

9. Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligining probatsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflari ma'qullansin:

probatsiya nazoratidagi shaxslarga o'rnatiladigan cheklovlar doirasini, cheklovlarga rioya etishni ta'minlash va nazorat qilishning mexanizmlarini aniq belgilash;

probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan yuritiladigan hujjatlarni to'liq elektron shaklga o'tkazish, ularga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash tartibi va asoslarini belgilash;

probatsiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam berish hamda kasb-hunar o'rganish va ishga joylashishda ko'maklashish tadbirlarini, mutasaddi organlarning vazifalarini aniq belgilagan holda, yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirish;

probatsiya nazoratidagi shaxslar ijtimoiy-psixologik portretining yagona shaklini, ularni toifalarga ajratish mezonlarini, yangi jinoyat sodir etishning oldini olish tartibini belgilash.

Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov), Bosh prokuratura (N.T. Yo‘ldoshev) ikki oy muddatda mazkur Farmonni inobatga olgan holda ilg‘or xorijiy tajriba asosida “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritсин.

10. Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov), Milliy gvardiya (R.M. Jo‘rayev) ikki oy muddatda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning shaxsiy tarkib va uning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishga doir barcha qonun va qonunosti hujjatlarning normalarini yagona normativ-huquqiy hujjatda aks ettiruvchi hamda ijtimoiy himoya choralarini qo‘llashning aniq va to‘liq mexanizmlarini belgilovchi Hukumat qarorlari loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **5-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilсин.

12. Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov) manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

ichki ishlar organlarining hududiy patrul-post xizmati tarkibida o‘z mablag‘lari hisobidan bosqichma-bosqich otliq otryadlarni tashkil etishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

qonunchilikka ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

13. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul etib ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov va Milliy gvardiya qo‘mondoni R.M. Jo‘rayev belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, mas‘ul vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi B.D. Islamov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 29-noyabr,
PF-27-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son **Farmoniga**
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi

KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi.

Konsepsiyada qo‘llanilgan asosiy tushunchalar:

jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o‘rinlarda — tahdidlar) himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash — davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim.

2. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi milliy manfaatlar:

jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash;

aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas‘uliyatini oshirish asosida mamlakatda huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash;

huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;

mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining faol va bunyodkor rolini, jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag'rikenglik madaniyatini, do'stlik, o'zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash;

dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o'zgarishlar va ular bilan bog'liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamiyatning o'zligini (tili, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi, milliy o'ziga xosligi va dinini), ya'ni o'zini o'zi saqlab qolish qobiliyati va salohiyatini mustahkamlash.

3. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash;

jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta'minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish;

ijtimoiy va millatlararo nizolarning profilaktikasini amalga oshirish;

har qanday ko'rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo'yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm obyektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo'l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo'l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o'lim bilan bog'liq holatlarning oldini olish;

jinoyat sodir etishga moyil, ma'muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo'lgan g'oyalar ta'siriga tushib adashgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, shu jumladan ularni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda aholining ko'nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish.

4. Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

qonuniylik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish hamda ularni hurmat qilish;

ochiqlik va shaffoflik;

jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarining ustuvorligi;

jamoat xavfsizligini ta'minlashda barcha vakolatli tuzilmalarning harakatlari izchilligi va birdamligi.

5. Jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat idoralari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilinuvchi kuch va vositalarning harakatlari o'zaro izchillik va birlikka asoslanadi hamda bu boradagi faoliyatda sansalorlik va ziddiyatlarga yo'l qo'yilmaydi.

2-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

6. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat.

Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlarga kiradi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash, jumladan huquqbuzarlik, ijtimoiy va millatlararo nizolarning oldini olishga qaratilgan kompleks maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, jamoat birlashmalari, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolar bilan samarali hamkorligini ta'minlaydi;

jamoat xavfsizligini bevosita ta'minlovchi subyektlarning moddiy-texnik ta'minotini, shuningdek, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etgan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

jamoat joylarida, shu jumladan yo'llarda, transport va turizm infratuzilmasi obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan barcha kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi;

fuqaroviy hamda xizmat quroli va uning o'q-dorilari muomalada bo'lishi sohasiga doir qoidalar va tartibga, ushbu sohadagi litsenziya va ruxsat berishga oid talablar hamda shartlarga rioya etilishini ta'minlaydi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlaydi;

jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kompleks, tizimli tahlilini olib boradi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish yuzasidan takliflar, ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar va tavsiyalar kiritadi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlar yuzasidan umumiy boshqaruv tizimini ta'minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash holati haqida keng jamoatchilikni muntazam xabardor qilib boradi, bu borada jamoatchilik fikrini o'rganadi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi.

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

o'ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi;

vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e'lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlaydi;

terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etadi;

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlaydi;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi.

10. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong'in xavfsizligi, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshirishda ishtirok etadi;

favqulodda vaziyatlar va yong'inlar yuzaga kelishining oldini olish hamda profilaktika tadbirlarini tashkil etish choralarini ko'radi;

aholi hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga xavf-xatar tug'ilganda kompleks yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda ular to'g'risida aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkillashtiradi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini boshqaradi, shuningdek, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini tashkil etadi;

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini, ushbu maqsadlar uchun moliyaviy, oziq-ovqat, tibbiy va moddiy-texnik resurslarning davlat zaxira fondlarini shakllantirishga doir ishlarini muvofiqlashtirish va ularning samarali hamkorligini tashkil etish choralarini ko'radi;

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat olib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi va maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlaydi.

11. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati:

terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashadi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish choralarini ko'radi;

davlat chegarasida, jumladan chegara oldi zonasi va chegara oldi mintaqasida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini oladi, ularga imkon beruvchi omillarni aniqlaydi va bartaraf etish choralarini ko‘radi;

terrorchilikka qarshi operatsiya hududlarida jamoat xavfsizligini ta‘minlashga jalb etilgan kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi;

davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida va qonunchilikda belgilangan boshqa joylarda jamoat xavfsizligini ta‘minlaydi;

jamoat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan shaxslar, muomalada bo‘lishi cheklangan yoki taqiqlangan ashyolar hamda moddalarning davlat chegarasidan noqonuniy olib o‘tilishining oldini oladi, aniqlaydi va ularga barham berish choralarini ko‘radi;

davlat va jamiyatga, jumladan jamoat xavfsizligiga terrorchilik, qo‘poruvchilik va buzg‘unchilik orqali tahdid soluvchi, milliy, etnik, diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan salbiy harakatlar haqida tezkor ma‘lumotlarni to‘playdi, tahlil qiladi va bunday harakatlarning oldini olish hamda bartaraf etish choralarini ko‘radi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi:

jamoat xavfsizligini ta‘minlashga vakolatli davlat organlarining qonunlarni aniq va bir xilda bajarishlari ustidan prokuror nazoratini amalga oshiradi hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan profilaktik va maxsus chora-tadbirlarning samaradorligini o‘rganadi hamda vakolatli davlat organlarining qo‘shma yig‘ilishlarida muhokama qiladi;

jamoat xavfsizligi sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillari, sabablari va shart-sharoitlari yuzasidan tizimli va ilmiy tahlillarni amalga oshiradi, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkillashtiradi;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llaydi va ularning bartaraf etilishini ta‘minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va mavjud vositalarni yagona axborot platformasiga integratsiya qilishda tegishli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, huquqbuzarliklarga murosasizlik hissini shakllantirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga qaratilgan huquqiy targ‘ibot ishlarini boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda olib boradi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi:

jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishini tashkil etadi;

oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

vakolati doirasida mahallalarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, shu jumladan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, fuqarolarda qonunga hurmat va itoat hissini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritadi, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘mak berilishini tashkil etadi;

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlaydi, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshiradi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlaydi;

mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlaydi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

shahar va hududiy infratuzilma boshqaruvining zamonaviy intellektual tizimlari joriy qilinishi va rivojlanishi bilan bog‘liq masalalar, jumladan uy-joy kommunal xizmatlarini ko‘rsatish, transport logistikasi, shoshilinch xizmatlar, ularni integratsiyalash hamda “Aqlli shahar” va “Xavfsiz shahar” yagona apparat-dasturiy kompleksiga birlashtirish bo‘yicha ishlarni olib boradi;

“Xavfsiz shahar” yagona apparat-dasturiy kompleksini yaratish va yanada rivojlantirish bo‘yicha tegishli hujjatlarni ishlab chiqadi, yagona texnologik yondashuvni ta‘minlaydi va yagona talablar, me‘yorlar hamda mezonlarni belgilaydi, kompleksni “Elektron hukumat” tizimi hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlari bilan integratsiyalash choralarini ko‘radi;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish bo‘yicha kadrlarni tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va malakasini oshiradi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

aholining sanitariya-epidemiologik xavfsizligini ta‘minlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda ko‘maklashadi, mazkur yo‘nalishda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

jamoat joylarida aholi sog‘lig‘ini saqlashni ta‘minlash, aholini sog‘lom turmush tarziga undash, fuqarolarda o‘zi va boshqa odamlar salomatligi uchun javobgarlik hissini tarbiyalash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o‘tkir alkogolli mastlik holatida jamoat joylarida bo‘lgan, mustaqil harakat qilish yoki adashmay yo‘l topish qobiliyatini yo‘qotgan hamda o‘zining harakatlari bilan jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan shaxslarga mastlik holatini bartaraf etish maqsadida tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini amalga oshiradi;

alkogolizm, giyohvandlik, toksik moddalarni iste‘mol qilish, o‘zgalarga xavf tug‘diradigan boshqa kasalliklarga chalingan shaxslar, shuningdek, ruhiy kasallarni tibbiy ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ishlarini amalga oshiradi;

ijtimoiy xavfli kasalliklarga chalingan, alohida toifalardagi shaxslar uchun belgilangan sanitariya normalari va qoidalariga hamda jamoat joylarida bo‘lish uchun cheklovlarga rioya etilishini nazorat qiladi.

16. Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimlari, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, jamoat joylaridagi kommunikatsiya, muhandislik-texnik vositalar hamda boshqa tizimlarga qo‘yiladigan yagona huquqiy talablarga rioya etish chora-tadbirlarini nazorat qiladi va amalga oshiradi;

tegishli hududdagi jamoat joylarida qurilish normalariga, texnik ekspluatatsiya qoidalariga, kommunikatsiya, ekologiya, sanitariya, epidemiologiya standartlari va talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi;

yo‘l harakatini tartibga solish va mavjud transport infratuzilmasidan oqilona foydalanish choralarini ko‘radi;

jamoat xavfsizligini bevosita ta‘minlovchi subyektlarni moddiy-texnik ta‘minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

17. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari jamoat xavfsizligini ta‘minlashga doir davlat dasturlarini, hududiy va idoraviy dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi, shuningdek, jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

18. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini bevosita ta‘minlovchi subyektlarga ko‘maklashish hamda zarur yordamni ko‘rsatish yo‘li bilan jamoat xavfsizligini ta‘minlashda ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlari

19. Konsepsiyani amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:
jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli va manzilli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan idoralararo amaliy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida malakali kadrlarni tayyorlash, ularni joy-joyiga qo'yish, tizimli malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
jamoat xavfsizligiga xatarlarning holati va darajalarini belgilovchi mezonlarni va asosiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda joriy etish;
jamoat xavfsizligini ta'minlash holatining joriy va istiqboldagi rivojlanishini prognoz qilish, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni belgilash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, ularni sodir etgan shaxslarning belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishini ta'minlash;
jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish va tezkor boshqarishning yagona markazlashgan tizimini joriy etish;
jamoat xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va uni tatbiq etish choralarini ko'rish, sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

20. Jamoat xavfsizligini ta'minlashga tahdidlar, ularning holati va rivojlanish tendensiyalari, jamoat xavfsizligining ta'minlanganligi holati belgilangan ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

21. Jamoat xavfsizligi manzilli va maqsadli dasturlar, jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni tizimli amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

22. Konsepsiyani amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishiladi:
jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir qonunchilik yanada takomillashtiriladi, mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlar bartaraf etiladi, milliy xususiyatlar va sharoitlar e'tiborga olingan holda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba tatbiq etiladi;
jamiyatda tinchlik va osoyishtalikning ta'minlanganlik darajasi oshiriladi, qonun ustuvorligi mustahkamlanadi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish samaradorligi oshadi;
jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatining shaffofligi va oshkoraligi ta'minlanadi, sohada jamoatchilik bilan uzviy hamkorlik darajasi oshadi;
jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga ishni tashkil etishning zamonaviy shakl va usullari hamda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etiladi.

23. Konsepsiyani amalga oshirishning pirovard natijasi jamoat xavfsizligini, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini samarali tatbiq etish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashning ishonchli va samarali mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

24. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslari o'z xizmat majburiyatlari yuzasidan jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida zarur chora-tadbirlar belgilanishi hamda ularning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlamaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son [Farmoniga](#)
2-ILOVA

2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish

STRATEGIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Huquq-tartibotni yanada mustahkamlash va jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish zarurati mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olishni talab etadi.

2. 2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya)ning maqsadi mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishdan iborat.

3. Strategiyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va probatsiya faoliyatini uyg‘unlashtirish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg‘or axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish;

profilaktik hisob, ma‘muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish.

4. Strategiyada belgilangan chora-tadbirlarni O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga asoslangan holda 2025-yil yakuniga qadar to‘liq amalga oshirish nazarda tutilgan.

5. Strategiyada belgilangan chora-tadbirlarning samarali bajarilishini tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri shaxsan mas‘ul hisoblanadi.

6. Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Strategiyada belgilangan vazifalarning sifatli ijro etilishini ta‘minlash maqsadida Milliy gvardiya va boshqa mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda har yili qo‘shma dastur va “yo‘l xarita”larini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi va ularning ijrosini muvofiqlashtiradi.

2-bob. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslarini rivojlantirish

7. Jamoat xavfsizligi sohasida yagona qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va probatsiya sohasidagi munosabatlar va vakolatlarni tartibga soluvchi 200 dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlar normalari va qoidalarini birlashtirish.

8. Jamoat xavfsizligiga xavflarning holati va darajalarini belgilovchi mezonlarni va asosiy ko‘rsatkichlarni (indikatorlarni) ishlab chiqish hamda joriy etish.

9. Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish, davlat organlari hamda servis-xizmat ko‘rsatish subyektlarining mazkur yo‘nalishdagi vazifa va funksiyalarini belgilovchi yagona qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish.

10. Profilaktik hisob, ma‘muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarga o‘rnatiladigan cheklovlar, shuningdek, ularning zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar doirasini va ularga rioya etilishini ta‘minlash mexanizmlarini aniq belgilash.

11. Ilg‘or xorijiy tajribaga tayangan holda yo‘l harakatini tashkil etishda vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining faoliyatini va o‘zaro hamkorligini “Ravon yo‘l” tamoyili asosida tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda ularning vakolatlari doirasini aniq belgilashni nazarda tutgan holda, ushbu sohadagi munosabatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qonun normalari bilan tartibga solish, “Yo‘l — piyoda uchun” tamoyilini keng joriy etish.

12. Yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini muntazam ravishda qasddan buzuvchilarga, og‘ir oqibatlariga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarini sodir etganlarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish, shu jumladan ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, transport vositasini boshqarish huquqidan uzoq muddatga mahrum qilish tarzidagi jinoiy-huquqiy ta‘sir chorasini joriy qilish.

13. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish.

14. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish.

15. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashga vakolatli bo‘lgan davlat organlari xodimlarining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik hamda faol qarshilik ko‘rsatish harakatlarining oldini olish tartib va mexanizmlarni belgilash.

16. Majburiy jamoat ishlari jazosini qo‘llashga doir normalarni, ushbu jazoni ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish.

17. Axloq tuzatish ishlari jazosini band bo‘lmagan shaxslarga tayinlash amaliyotiga doir muammoni bartaraf etish.

18. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan shaxslarning jazosini og‘irroq jazoga almashtirish tartiblarni takomillashtirish.

19. Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markaziga joylashtirishda shaxsni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni va unga nisbatan protsessual harakatlarni markazning o‘zida amalga oshirish tartibini joriy etish.

20. Qurol aylanmasi ustidan nazoratni kuchaytirish, qurol egalarini tibbiy cheklovlar bo‘yicha davriy ravishda tekshirish bo‘yicha aniq tartibni belgilash, o‘qotar ov quroliga egalik qilish mezonlarini qayta ko‘rib chiqish.

21. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda respublika ovchilik jamiyatlarining rolini oshirish va mas‘uliyatini kuchaytirish.

22. Piyodalarni yo‘l harakati qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

23. Qoniqarsiz holati yo‘l-transport hodisasiga, ayniqsa, o‘limga olib kelgan yo‘l yoki muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlari tasarrufida bo‘lgan tashkilotlar yoki organ rahbarlaridan moddiy zararni undirish tartibini joriy etish hamda ularning javobgarligini belgilash.

24. Transport vositalari haydovchilari tomonidan sodir etiladigan “yo‘lda bezorilik” holatlari bilan ifodalanadigan xatti-harakatlar uchun ma‘muriy javobgarlikni joriy etish.

3-bob. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning uslubiy asoslarini rivojlantirish

25. Mahalla huquq-tartibot maskanining namunaviy loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

26. Respublika bo‘yicha mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini to‘laqonli yo‘lga qo‘yish.

27. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha 14 ta (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) “Hudud metodikasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

28. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda huquq-tartibot idoralarining kuch va vositalarini boshqarishning yagona markazlashgan tizimini tashkil etish.

29. Tuman (shahar) ichki ishlar organlari tarkibidagi konvoy bo‘linmalarini bosqichma-bosqich viloyat ichki ishlar organlarining bevosita bo‘ysunuviga o‘tkazish hamda yagona boshqaruv tizimi asosida tumanlararo xizmat o‘tash tamoyiliga muvofiq qayta tashkil etish.

30. Ichki ishlar organlari tarkibida tumanlararo patrul-post xizmati bo‘linmalarini tashkil etish.

31. Xizmat vazifalarini bajarishda qulayliklar yaratishni va iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda, jamoat xavfsizligini ta‘minlashga jalb qilingan huquq-tartibot organlari xodimlari uchun yangi formal kiyim-bosh namunasini ishlab chiqish, tasdiqlash hamda ularni sifatli va mos o‘lchamdagi formal kiyim-bosh bilan ta‘minlash.

32. Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning mast holatda sodir etilganligini, shuningdek, alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik cheklovi o'rnatilgan shaxsni ushbu cheklovga rioya etmaganligini aniqlash va tasdiqlash tartibini ishlab chiqish.

33. Alkogolli ichimlikka ruju qo'ygan, giyohvand, zaxarvand, tajovuzkor ruhiy kasal shaxslarni majburiy davolash bo'yicha namunaviy dastur ishlab chiqish.

34. Ekstremistik va yot g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan ishlash va ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha namunaviy metodikani ishlab chiqish.

35. Internet tarmog'ida jamoat xavfsizligi uchun xavf tug'diradigan tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha kompleks tashkiliy-metodik asoslar va harakatlar mexanizmlarini yaratish.

36. Guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish vaqtida Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari tomonidan foydalaniladigan maxsus texnik vositalarni, shuningdek, tezkor axborot almashish, quyi tizimdagi bo'linmalarni oqilona boshqarish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.

37. Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida bajariladigan dissertatsion tadqiqotlar mavzularini shakllantirishda jamoat xavfsizligini ta'minlash amaliyotidagi dolzarb muammolarning yechimlariga yo'naltirilgan masalalarga ustuvor ahamiyat qaratish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yo'lga qo'yish.

38. Profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarning o'rnatilgan cheklovlarga rioya etishini va ularning zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarishini ta'minlash, tekshirish va nazorat qilish, shuningdek, ushbu shaxslarga tarbiyaviy va huquqiy ta'sir choralarini qo'llash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha "Harakatlar protokoli"ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

39. Davlat-xususiy sheriklik va outsorsing mexanizmlarini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimiga va yo'l infratuzilmasini takomillashtirish jarayoniga joriy etish.

40. Tranzit va davlat ichki transport oqimi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan xalqaro avtomobil yo'llari infratuzilmasini takomillashtirish.

4-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini rivojlantirish

41. Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatining tarkibiy qismlarini ifodalovchi masalalarni chuqur ilmiy o'rganish asosida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya ta'lim muassasalari o'quv jarayonida "Jamoat xavfsizligi asoslari" fanini joriy etish, shu jumladan "Jamoat xavfsizligi asoslari" darsligini tayyorlash.

42. Profilaktika inspektorlarining ma'muriy hududda ish faoliyatini olib borishi bo'yicha to'liq mexanizmlarni nazarda tutuvchi "shahar inspektori" va "qishloq inspektori" modellarini yaratish, joriy etish va ular bo'yicha o'qitishni tashkil etish.

43. "Jamoat xavfsizligi asoslari" fani predmetiga kiradigan sohalarni yagona ilm sohasiga birlashtirgan holda, "Jamoat xavfsizligini ta'minlash" ixtisosligini kiritish.

44. Jamoat xavfsizligi muammolarini o'rganish, ilmiy tadqiq qilish borasida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi va Jamoat xavfsizligi universitetini tayanch metodik bazaga aylantirish.

45. Sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning asl omillarini "ilmiy diagnoz" asosida aniqlash va "ilmiy diagnoz xulosasi" bilan "E-jamoat havfsizligi" axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibini joriy qilish.

46. Sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning asl omillarini bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ilmiy baholash asosida tahlil qilish va "ilmiy baholash xulosasi"ni rasmiylashtirish tartibini joriy qilish.

47. Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi va Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan Innovatsion rivojlanish vazirligi va Fanlar Akademiyasi bilan birgalikda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi muammolarni hal qilish yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta'minlash.

48. Davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarini Jamoat xavfsizligi universiteti hamda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi negizida jamoat xavfsizligi asoslari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitish.

5-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslarini rivojlantirish

49. Har beshta mahalla uchun bitta mahalla huquq-tartibot maskanini namunaviy loyiha asosida tashkil etish.

50. "Jinoyat o'choqlari" hisoblangan hududlarda tungi vaqtda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalarining harbiy xizmatchilari va xodimlaridan iborat avtopatrul, otliq va piyoda patrullarning uzluksiz faoliyatini yo'lga qo'yish, ularning vakolat doirasini belgilash va funksional majburiyatlarini tasdiqlash.

51. Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyat olib borishning batafsil va aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

52. Ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet tarmog'idan foydalangan holda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari xodimlarini obro'sizlantirish holatlarining oldini olish va ularga barham berishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

53. Ichki ishlar organlarining axloqqa qarshi huquqbuzarliklar bilan kurashish faoliyatini, shu jumladan, tashkiliy-tuzilmaviy asoslarini yaratgan holda takomillashtirish.

54. Kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini huquqiy tartibga solishni, shu jumladan ularning yoshlar tomonidan notibbiy maqsadlarda iste'mol qilinishi holatlarining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish.

55. Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlashga mas'ul bo'linmalarining huquqbuzarliklarni aniqlash va ma'muriy jazo choralarini qo'llash vakolatini kengaytirish.

56. Mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlash mexanizmlarini belgilash.

57. Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasiga doir imtiyozlardan foydalanishida inson omilini cheklaydigan avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish.

58. Hududiy ichki ishlar organlarining ma'muriy binolarini qo'riqlashni Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi tizimini joriy etish.

59. Hududiy ichki ishlar organlari patrul-post xizmati bo'linmalari tarkibida bosqichma-bosqich otliq otryadlarni tashkil etish.

60. Ota-onasi nazoratisiz va qarovisiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashning yangicha tizimini yaratish.

61. Transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutgan holda, respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

62. Transport va piyodalarning harakatni to'xtatishi va boshlashi to'g'risida ogohlantirishning zamonaviy signal beruvchi tizimlarini joriy etish, piyodalar uchun yangi turdagi o'tish joylarini tashkil etish.

63. Yo'l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish, yo'llar sifatini yaxshilash, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli sharoitlar yaratish hisobidan yo'l-transport hodisalari sodir etilishini minimal darajaga keltirish.

64. Yo'l qurilishi sohasiga oid normativ hujjatlarga (ShNQ, Davlat standarti va boshq.) zamon talablaridan kelib chiqib tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

65. Jamoat va maxsus transport uchun alohida harakatlanish yo'l polosasi va zamonaviy velosiped yo'lkalari tashkil etish.

66. Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining jamoat xavfsizligini, shu jumladan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash faoliyatini amalga oshiruvchi bo'linmalarini zamonaviy maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash.

6-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning shakl va usullarini rivojlantirish

67. Sodir etilgan jinoyatlarning asl omillarini aniqlash va bartaraf etishda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning vakolat doirasini aniq belgilash.

68. Bozorlar atrofidagi tirbandliklarni bartaraf etish va fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida va transport vositalari sonini hisobga olgan holda, yirik bozorlar atrofida ushbu bozorlarning daromadlari hisobidan ko'p qavatli yoki yer osti avtoturargohlari qurilishini tashkil etish.

69. Shahar va tumanlarning aholi gavjum joylarida piyodalar yo'lakchalariga piyodalar boshqaradigan svetoforlarni o'rnatish.

70. "Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi" shiori ostida umumta'lim muassasalarida "Yo'l harakati qoidalari" bo'yicha o'quv tadbirlarini tashkil etish.

71. Umumta'lim muassasalarida "Harakat xavfsizligi sinfxonalari"ni, mahallalarda "Yo'l harakatini o'rgatish maydonchalari"ni tashkil etish.

72. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga yo'l harakati xavfsizligi asoslarini o'qitish tizimini joriy etib, yo'llarda, chorrahalarda va piyodalar o'tish joylarida harakatlanish asoslarini amaliy hamda ko'rgazmali tarzda o'rgatishni yo'lga qo'yish.

73. Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'muriy amaliyot bo'linmalari faoliyatini takomillashtirish, ularning lavozimlarini ofitserlik tarkibiga o'tkazish hamda birinchi navbatda oliy yuridik ma'lumotli xodimlar bilan butlash tartibini joriy etish.

74. Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo'linmalari hamda "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

75. Fuqarolar orasidan favqulodda vaziyatlarda jalb etiladigan Milliy gvardiyaning safarbarlik zaxiralarini yaratish tizimini joriy etish.

76. Ichki ishlar organlari, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda boshqa mutasaddi organlarning mahallalar kesimida uyushmagan yoshlar bilan ishlashini tashkil etish bo'yicha o'zaro bog'langan to'liq mexanizmlarni joriy etish.

77. "Ijtimoiy profilaktika", "probatsion profilaktika", "tergov profilaktikasi", "sud profilaktikasi"ni huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari sifatida joriy etish va ularni qo'llashning aniq mexanizmlarini belgilash.

78. Mulkiy turdagi jinoyatlarning oldini olish, notinch oilalar hamda oilaviy zo'ravonlik qurbonlari bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini yangicha yondashuv — "Xavfsiz xonadon" va "Xavfsiz hovli" tizimi asosida amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

79. Ma'muriy nazorat va profilaktik hisob institutlari negizida profilaktik nazorat institutini joriy qilish.

80. Davlat yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalarining asosiy faoliyatini fuqarolarga ko'mak berishga yo'naltirish, jumladan yo'llarda inspektorlarning patrul xizmatini faqat avto- va mototransport vositalarida olib borishi tartibini joriy etish.

81. Favqulodda vaziyatlarda va alohida sharoitlarda vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha kuch va vositalarining tezkor va yagona idoralararo boshqaruvini tashkil etish tartibini takomillashtirish.

82. Aholiga ehtimoliy yoki sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar hamda yong'inlar to'g'risida xabar berish va ma'lumot yetkazish tizimini yanada takomillashtirish.

83. Ko'p qavatli binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlash va yong'in o'chirish bo'yicha samarali tizimni joriy etish.

84. Tungi vaqtlarda aholi yashash punktlarining yoritilishi va video kuzatuv qamrovini kengaytirish.

85. Jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan kuch va vositalarni markazlashgan tarzda boshqarish tartibini samarali yo'lga qo'yish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti huzurida yagona muvofiqlashtirilgan idoralararo boshqaruv tizimini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga soluvchi aniq va batafsil huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish.

86. Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari harbiy xizmatchi va xodimlarini sug'urtalash institutini takomillashtirish.

87. "Jamoat xavfsizligi fidoyisi" idoralararo ko'krak nishonini ta'sis etish.

88. Profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan yakka tartibdagi suhbatlarni maxsus "suhbat xonasi"da o'tkazish tartibini joriy qilish.

89. Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo'linmalari xodimlari xizmat faoliyatida skuter vositasidan foydalanish amaliyotini sinovdan o'tkazish.

90. Ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari huzurida yoshlar orasidan "To'maris izdoshlari" jamoaviy guruhlarini tashkil etish, ularni jamoat xavfsizligi tizimiga jalb etish hamda guruh a'zolariga huquq-tartibot idoralarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda tegishli imtiyozlarni berish.

7-bob. Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini raqamlashtirish

91. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida qog'oz shaklidagi ish yuritishni maksimal darajada qisqartirib, faqat elektron shaklda yuritiladigan hujjatlar ulushini 90 foizga yetkazish.

92. Milliy gvardiya va ichki ishlar organlaridan jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan bo'linmalarning axborot tizimlari (probatsiyaning markazlashgan elektron tizimi, yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimi) bazasida "E-jamoat havfsizligi" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga to'liq tatbiq etish.

93. Jamoat tartibini buzgan, qayta jinoyat sodir etgan shaxslarning yagona elektron ro'yxatini yuritish va axborot tizimi orqali davriy monitoring qilib borish tartibini yo'lga qo'yish.

94. Fuqarolarning ma'muriy huquqbuzarliklar masalalari bo'yicha ortiqcha ovora bo'lishining oldini olish, soha xodimlarining vaqtini tejash, o'z vaqtida va tezkorlik bilan jazo muqarrarligini ta'minlash maqsadida ma'muriy ish yurituvni to'liq elektron shaklga o'tkazish.

95. Profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarning jamoat xavfsizligi xizmatiga kelib ro'yxatdan o'tishini ta'minlashda barmoq izini tanib olish tizimidan foydalanish amaliyotini joriy etish.

96. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan holda "Ravon va xavfsiz yo'l" konsepsiyasi asosida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

97. Ichki ishlar organlari konvoy bo'linmalari faoliyatiga konvoy ostidagi shaxslarni elektron brasletlar orqali nazorat qilish tizimini joriy etish.

98. Probatsiya nazoratidagi shaxslarning yashash, ish va o'qish joyida ekanligini tekshirish maqsadida GPS texnologiyali qurilmalarni amaliyotga joriy etish.

99. Jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish.

100. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, tirbandliklarni masofadan turib bartaraf etish maqsadida yo'llardagi barcha svetoforlarning axborot boshqaruvi tizimiga ulanishini ta'minlash, sohaga intellektual tizimlarni joriy etish.

101. Milliy gvardiyaning umumiy rahbarligi ostida ichki ishlar organlari va boshqa mutasaddi davlat organlari xodimlarining maxsus tayyorgarlik darajasini oshirish, alohida sharoitlarda birgalikda harakat qilishiga doir amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv mashqlarini tizimli ravishda o'tkazish, o'quv mashqlarini raqamli texnologiyalar orqali monitoring qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.

8-bob. Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

102. Strategiya ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va boshqa mutasaddi organlarning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlar ishlab chiqishda uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

103. Strategiyada belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining qonunga xilof tajovuzlardan himoyalanganlik holati sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tariladi.

104. Jinoyatlar, shu jumladan takroran sodir etilgan jinoyatlar va yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, xodimlarning xizmat faoliyatini fuqarolarga ko'maklashishga yo'naltirish orqali aholining jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlariga ishonchi ortishiga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoniga
3-ILOVA

2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha

“YO'L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlarning nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslarini rivojlantirish				
1.	Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlashga mas'ul bo'linmalarining huquqbuzarliklarni aniqlash va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini belgilash.	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2022-yil yanvar	Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>), Oliy sud (<i>Kamilov</i>)
2.	Qurol aylanmasi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida: qurolga egalik qilishning eng kam yoshini oshirish; qurol egalari va ularning yaqin qarindoshlarini tibbiy cheklovlar bo'yicha davriy tekshirish tartibini belgilash; qayta o'qlamasdan uzluksiz o'q uzish imkonini beruvchi silliq stvulli yarim avtomatik o'qotar ov quroli mavqeyini soyli stvulli qurolga tenglashtirish; g'ayriqonuniy maqsadlarda ma'lum texnik sharoitlar va ko'nikmalar yordamida qayta jangovar holatga keltirilishi mumkin bo'lgan “pahtavon” (“охолощеное”), o'quv va vazn-gabaritli (“masso-gabaritnoye”) qurollar muomalasini taqiqlash; pnevmatik qurolga egalik qilishni ruxsatnoma asosida amalga oshirish hamda fuqaro egaligida bo'lishi mumkin bo'lgan bunday qurollar sonini aniq belgilash; fuqaroviy qurolga egalik qilishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni qayta ko'rib chiqish hamda ular yuzaga kelganda qurolni zudlik bilan olib qo'yish mexanizmini belgilash.	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2022-yil yanvar	IIV (<i>Bobojonov</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Musayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	Quyidagilarni inobatga olib va ilg'or xorijiy tajriba asosida probatsiya faoliyati samaradorligini oshirish:	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2022-yil yanvar	IIV (<i>Bobojonov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>),

<p>probatsiya nazoratidagi shaxslarga o'rnatiladigan cheklovlar doirasini, cheklovlarga rioya etishni ta'minlash va nazorat qilishning mexanizmlarini aniq belgilash;</p> <p>probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan yuritiladigan hujjatlarni to'liq elektron shaklga o'tkazish;</p> <p>majburiy jamoat ishlari jazosini qo'llashga doir normalarni, ushbu jazoni ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish;</p> <p>axloq tuzatish ishlari jazosini band bo'lmagan shaxslarga tayinlamaslik;</p> <p>ozodlikni cheklash jazosini qo'llashda sutkaning vaqtini belgilash mezonini joriy qilish;</p> <p>probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llash tartibini joriy etish, intizomiy jazo choralarini qo'llash asoslarini aniq belgilash;</p> <p>probatsiya nazoratidagi shaxslarga jamoat ta'sirini ko'rsatish, ijtimoiy, tibbiy va psixologik yordam berish hamda kasb-hunar o'rganish va ishga joylashishdagi ko'maklashish ishlarini yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirish;</p> <p>probatsiya nazoratidagi shaxslar ijtimoiy-psixologik portretining yagona shaklini, ularni toifalarga ajratish mezonlarini, yangi jinoyat sodir etishning oldini olish tartibini belgilash.</p>			<p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
<p>4. Jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan kuch va vositalarning markazlashgan boshqaruvi tartibini joriy etish. Bunda:</p> <p>Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti huzurida yagona muvofiqlashtirilgan idoralararo boshqaruv tizimini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga soluvchi aniq mexanizmlarni ishlab chiqish;</p> <p>Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyatning mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;</p> <p>Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo'linmalari hamda "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish;</p>	<p>Qo'shma qaror</p>	<p>2022-yil fevral</p>	<p>IIV (<i>Bobojonov</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), FVV (<i>Qo'ldoshev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

	alohida sharoitlarda vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha kuch va vositalarini tezkor va yagona muvofiqlashtirilgan idoralararo boshqarishni amaliyotga tatbiq etish.			
5.	Quyidagilarni inobatga olib, huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish: profilaktik hisob, ma'muriy va probatsiya nazoratidagi shaxslarga o'rnatiladigan cheklovlar, shuningdek, ularning zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar doirasini va ularga rioya etilishini ta'minlash mexanizmlarini aniq belgilash; ma'muriy nazorat va profilaktik hisob institutlari negizida, shu jumladan takroran sodir etilgan taqdirda jinoyatni keltirib chiqaradigan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktik nazorat institutini joriy qilish.	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2022-yil yanvar	IIV (<i>Bobojonov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
6.	Jamoat xavfsizligini ta'minlashda respublika ovchilik jamiyatlarining rolini oshirish va mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, ularning faoliyatini tubdan takomillashtirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil may	IIV (<i>Abdullayev</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
7.	"Yo'lda bezorilik" holatlari bilan ifoalanadigan, qasddan sodir etilgan xatti-harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikni joriy etish.	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2022-yil may	IIV (<i>Bobojonov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>), Oliy sud (<i>Kamilov</i>)
II. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning uslubiy asoslarini rivojlantirish				
8.	Quyidagilarni inobatga olib, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish: mahalla huquq-tartibot maskanining namunaviy loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; mahalla huquq-tartibot maskanining tuzilmasini ishlab chiqish va tasdiqlash; mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlash mexanizmlarini belgilash.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil mart	IIV (<i>Abdullayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
9.	Guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish vaqtida shaxsiy tarkib tomonidan foydalaniladigan maxsus texnik vositalarni, shuningdek, tezkor axborot almashish, quyi tizimdagi	Qo'shma qaror	2022-yil fevral	IIV (<i>Abdullayev</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), manfaatdor

	bo‘linmalarni oqilona boshqarish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish.			vazirlik va idoralar
10.	Jamoat xavfsizligini ta’minlash, guruhviy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha 14 ta “Hudud metodikasi”ni ishlab chiqish.	Qo‘shma qaror	2022-yil aprel	IIV (<i>Bobojonov</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo‘rayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
11.	Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya jamoat xavfsizligi bo‘linmalari uchun xizmat otlarini yetishtirish maqsadida qorabayir zotli otlarning naslini ko‘paytirishga ixtisoslashgan korxonani tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil iyul	IIV (<i>Bobojonov</i> , <i>Abdullayev</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo‘rayev</i>)
12.	Profilaktik hisob, ma’muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlash borasida quyidagilarni nazarda tutuvchi “Harakatlar protokollari”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish: nazoratdagi shaxslarga tarbiyaviy va huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish; ularning o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etishini va zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarishini ta’minlash, tekshirish va nazorat qilish.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil aprel	IIV (<i>Bobojonov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo‘ldoshev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
13.	Quyidagilarni nazarda tutgan holda probatsiya xizmati faoliyatiga yangi ish uslublarini tatbiq etish: bir nafar probatsiya inspektori uchun probatsiya nazoratidagi shaxslar me’yorlarini belgilash; probatsiya inspektori faoliyatini profilaktika inspektori bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etish; profilaktika inspektorlariga amaliy va uslubiy ko‘maklashish.	Idoraviy normativ hujjat	2022-yil fevral	IIV (<i>Abdullayev</i>)
14.	Alkogolli ichimlikka ruju qo‘ygan, giyohvand, zaharvand, tajovuzkor ruhiy kasal shaxslarni majburiy davolash bo‘yicha namunaviy dastur ishlab chiqish.	Qo‘shma qaror	2022-yil mart	Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Musayev</i>), IIV (<i>Bobojonov</i>)
15.	Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markaziga joylashtirishda shaxsni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni va unga nisbatan protsessual harakatlarni markazning o‘zida amalga oshirish tartibini joriy etish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil iyul	IIV (<i>Bobojonov</i>), Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Musayev</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo‘ldoshev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

III. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini rivojlantirish

16.	<p>Quyidagilarni nazarda tutgan holda, jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini ilmiy o'rganish amaliyotini yo'lga qo'yish: o'quv jarayonida "Jamoat xavfsizligi asoslari" fanini joriy etish, shu jumladan "Jamoat xavfsizligi asoslari" darsligini tayyorlash;</p> <p>jamoat xavfsizligi muammolarini o'rganish, ilmiy tadqiq qilish borasida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi va Jamoat xavfsizligi universitetini tayanch metodik bazaga aylantirish;</p> <p>jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi muammolarni hal qilish yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	Qo'shma qaror	2022-yil yanvar	IIV (<i>Bobojonov, Xatamov</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev, Rustambayev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Toshkulov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abdurahmonov</i>)
17.	<p>Profilaktika inspektorlarining ma'muriy hududda ish faoliyatini olib borishi bo'yicha to'liq mexanizmlarni nazarda tutuvchi "shahar inspektori" va "qishloq inspektori" modellarini yaratish va ularni ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlash amaliyotiga joriy etish choralarini ko'rish.</p>	Idoraviy normativ hujjat	2022-yil yanvar	IIV (<i>Abdullayev</i>)
18.	<p>Profilaktika inspektorlarini tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga "shahar inspektori" va "qishloq inspektori" modellariga muvofiq o'qitish tizimini joriy etish.</p>	Tashkiliy tadbirlar	2022-yil fevral	IIV (<i>Ikramov</i>)
IV. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslarini rivojlantirish				
19.	<p>Mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlash mexanizmlarini belgilash.</p>	Qo'shma qaror	2022-yil yanvar	IIV (<i>Bobojonov</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
20.	<p>Milliy gvardiyaning umumiy rahbarligi ostida ichki ishlar organlari va boshqa mutasaddi davlat organlari xodimlarining maxsus tayyorgarlik darajasini oshirish, alohida sharoitlarda birgalikda harakat qilishga doir amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv-mashqlarini tizimli ravishda o'tkazish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil mobaynida	Milliy gvardiya (<i>Jo'rayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
21.	<p>Ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet tarmog'idan foydalangan holda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish,</p>	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil iyun	IIV (<i>Bobojonov</i>), AOKA (<i>Xodjayev</i>), manfaatdor

	shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarini obro‘sizlantirish holatlarining oldini olish va ularga barham berishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.			vazirlik va idoralar
22.	Ichki ishlar organlari profilaktika va probatsiya inspektorlari, patrul-post va yo‘l-patrul xizmati xodimlarining faoliyatini baholash tartibiga samaradorlik indikatorlarini o‘z ichiga oluvchi reyting tizimini joriy etish.	Idoraviy normativ hujjat	2022-yil yanvar	IIV (Bobojonov, Abdullayev)
V. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning shakl va usullarini rivojlantirish				
23.	Yo‘l harakati xavfsizligini to‘liq ta’minlash borasida quyidagi zamonaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish: maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalariga yondosh yo‘llarda tezlik me’yorlarini keskin kamaytirgan holda, ushbu me’yorlarni barcha joylar uchun yagona etib qat’iy belgilash; shahar va tumanlarning aholi gavjum joylarida piyodalar yo‘lakchalariga piyodalar boshqaradigan svetoforlarni o‘rnatish; umumta’lim muassasalarida “Harakat xavfsizligi sinfxonalari”ni, mahallalarda “Yo‘l harakatini o‘rgatish maydonchalari”ni tashkil etish; maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga yo‘l harakati xavfsizligi asoslarini o‘qitish tizimini joriy etib, yo‘llarda, chorrahalarda va piyodalar o‘tish joylarida harakatlanish asoslarini amaliy hamda ko‘rgazmali tarzda o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil fevral	IIV (Bobojonov, Abdullayev), Xalq ta’limi vazirligi (Saidov), Maktabgacha ta’lim vazirligi (Shin), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (Toshqulov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
24.	Mahallalar kesimida uyushmagan yoshlar bilan ishlashni tashkil etish bo‘yicha o‘zaro bog‘langan to‘liq mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, bu boradagi ish yuritishni “Yoshlar daftari” axborot-tahlil tizimi orqali amalga oshirish.	Qo‘shma qaror	2022-yil fevral	IIV (Abdullayev), Yoshlar ishlari agentligi (Sa’dullayev), Yoshlar ittifoqi, Mahalla vazirligi (Mamatov)
25.	Hududlarning o‘ziga xos va geografik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ichki ishlar organlari patrul-post xizmati bo‘linmalari tomonidan patrul xizmati bosqichma-bosqich faqat avto- va mototransport vositalarida olib borilishini ta’minlash.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil fevral	IIV (Abdullayev), Moliya vazirligi (Xaydarov)

26.	“Jamoat xavfsizligi fidoyisi” idoralararo ko‘krak nishonini ta’sis etish.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil sentyabr	IIV (<i>Bobojonov</i>), Milliy gvardiya (<i>Jo‘rayev</i>), FVV (<i>Qo‘ldoshev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
27.	Ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo‘yicha bo‘linmalari huzurida yoshlar orasidan “To‘maris izdoshlari” jamoaviy guruhlarini tashkil etish, ularni jamoat xavfsizligi tizimiga jalb etish hamda guruh a‘zolariga huquq-tartibot idoralarining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda tegishli imtiyozlarni berish (alohida kvota ajratish va boshqa).	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil may	IIV (<i>Abdullayev</i>), Yoshlar ishlari agentligi (<i>Sa’dullayev</i>), Yoshlar ittifoqi, manfaatdor vazirlik va idoralar
28.	Ota-onasi nazoratisiz va qarovisiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashning yangicha tizimni yo‘lga qo‘yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil yanvar — sentyabr	IIV (<i>Abdullayev</i>), Xalq ta’limi vazirligi (<i>Saidov</i>), Yoshlar ishlari agentligi (<i>Sa’dullayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
VI. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini raqamlashtirish				
29.	Ichki ishlar organlari konvoy bo‘linmalari faoliyatiga konvoy ostidagi shaxslarni elektron brasletlar orqali nazorat qilish tizimini joriy etish.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil may	IIV (<i>Bobojonov</i> , <i>Abdullayev</i>), Mudofaa sanoati qo‘mitasi (<i>Ismoilov</i>)
30.	Profilaktik hisob, ma’muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarning jamoat xavfsizligi xizmatiga kelib ro‘yxatdan o‘tishini ta’minlashda barmoq izini tanib olish tizimidan foydalanish amaliyotini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	IIV (<i>Turaxodjaye</i> , <i>Abdullayev</i>)

1. Normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlar huquqiy munosabatlarni tartibga solish predmeti va sohasiga qarab qayta ko‘rib chiqilishi yoki yagona hujjatga birlashtirilishi mumkin.

2. Ikki va undan ortiq bandlar birlashtirilganda ularni ijro etish uchun belgilangan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

3. 2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasining mazkur “Yo‘l xaritasi”da belgilanmagan boshqa tadbirlari 2022-yilda mas’ul idoralar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoniga
4-ILOVA

Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar

RO‘YXATI

1. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida vakolatli davlat organlari va tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyati natijalarini umumlashtirish va yagona axborot-tahlil tizimiga kiritilishini ta'minlash.

2. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududidagi kriminogen vaziyatni muntazam ravishda o'rganib borish, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo'yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida aholi o'rtasida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish.

4. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni belgilangan tartibda profilaktik hisobga va ma'muriy nazoratga olish, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy moslashtirish ishlarini individual dastur tuzgan holda tashkil etish.

5. Yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish.

6. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlarga ko'maklashish.

7. Voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish.

8. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga himoya orderini berish va himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish.

9. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksiga](#) muvofiq tegishli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish.

10. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, ularning murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish.

11. Vakolatli davlat organlari va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida har bir oilani bevosita joyida o'rgangan holda, fuqarolarning jamoat xavfsizligiga oid va huquqbuzarliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan muammolari va noroziliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.

12. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida pasport rejimi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

13. Tajovuzkor ruhiy kasallar, spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalariga ko'maklashish.

14. Probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, o'rnatilgan cheklolarga rioya etishini tekshirishda, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda probatsiya inspektorlariga ko'maklashish.

15. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida jamoat tartibini saqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini tashkil etish. Fuqarolarni, ularning roziligi bilan, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralarni amalga oshirishda ko'maklashishga jalb etish.

16. Davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish hamda mahalladagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etmaganlik yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

17. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilarini saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga ko'maklashish.

18. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g'ayriqonuniy va buzg'unchilik yo'nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlashga ko'maklashish.

19. OIV/OITSning tarqalishini barvaqt oldini olish, axloqsizlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda fohishaxonalarning saqlanishiga chek qo'yishga ko'maklashish.

20. Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlash va hisobini yuritish, ularning chet elda bo'lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib borish, uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish.

21. Jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jazodan bo'yin tovlayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslarni hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma'lum murdalarning shaxsini aniqlash bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashish.

22. Shaxsni majburiy keltirish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimini belgilangan tartibda ijro etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoniga
5-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmonida:

a) 19-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 20-bandning **beshinch**i — **sakkizinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"profilaktika inspektorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi;

tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinbosarlari — jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari (jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari) O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'i tavsiyasiga binoan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

profilaktika inspektorlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining o'rinbosari — Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'i tomonidan, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyat ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish jamg'armalarining mablag'lari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan tegishlicha ularning o'rinbosarlari — jamoat xavfsizligi xizmati (huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati, boshqarmasi) boshliqlari takliflari asosida qabul qilinadigan qarorlarga muvofiq belgilangan tartibda sarflanadi";

v) quyidagi mazmundagi 20¹-band bilan to'ldirilsin:

"20¹. Mahallalarni kriminogen vaziyatdan kelib chiqib toifalarga ajratishda foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Bosh prokuraturasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda har bir mahalla kesimidagi xonadonlar hamda ularda istiqomat qiluvchi aholi soni haqidagi ma'lumotni "Elektron jinoiy-huquqiy statistika" yagona axborot tizimiga integratsiya qilinishini ta'minlasin";

g) 21-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha o‘rinbosariga” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining o‘rinbosari — Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig‘iga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6035-son Farmoni 7-bandining **ikkinchi xatboshisi** “sanitariya-epidemiologiya qonunchiligini buzganlik uchun” so‘zlaridan keyin “Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2883-son qarori 6-bandining **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Madaniy-ma’rifiy ishlar markazi, “JAR” sport-sog‘lomlashtirish majmuasi, shuningdek, davolash-profilaktika va tibbiyot muassasalari tomonidan ular faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan pullik xizmatlar ko‘rsatish huquqini berish haqidagi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2896-son **qarorida**:

a) 3-bandning **ikkinchi xatboshisi** va qarorga **1-ilova** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) **7-band** quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“2022-yildan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etiladigan doimiy aholi soni to‘g‘risidagi har yilgi yakuniy ma’lumotlarga asosan hamda hudud (mahallalar)dagi kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda qo‘shimcha ravishda ajratiladigan ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari shtat birliklari soni to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritib borsin”;

beshinchi — yettinchi xatboshilar tegishincha oltinchi — sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

v) **2-ilovada**:

2-band quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Profilaktika inspektori shtat birliklarining soni tayanch punkti tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan hudud (mahallalar)ning kriminogen vaziyati, aholi soni va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu Nizomga ilovadagi me‘yorlar asosida belgilanadi”;

uchinchi xatboshi to‘rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

5-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Profilaktika inspektorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi”;

6 — 10 bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Tayanch punktlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun profilaktika inspektorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan vazifalarni amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishlari mumkin”;

quyidagi mazmundagi ilova bilan to‘ldirilsin:

“Ichki ishlar organlari tayanch punkti to‘g‘risida nizomga

ILOVA

Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari shtat birliklarini kiritish

ME‘YORLARI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Toshkent shahri hududida*	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududida
-----	----------------	---------------------------	--

		Jami	shundan		Jami	shundan	
			profilaktika katta inspektori	profilaktika inspektori		profilaktika katta inspektori	profilaktika inspektori
1.	Aholi soni 7 ming nafargacha	2	1	1	1	-	1
2.	Aholi soni 7 mingdan 10 ming nafargacha	2	1	1	2	1	1
3.	Aholi soni 10 ming nafar va undan ortiq	3	1	2	2	1	1
Qo'shimcha ravishda kriminogen vaziyatdan kelib chiqib ajratiladigan shtat birliklari							
4.	So'nggi bir yil davomida mahallada sodir etilgan jinoyatlar soni har 1000 nafar aholiga nisbatan 10 ta va undan yuqori bo'lganda	1	-	1	1	-	1

** Poytaxt hududida aholining zichligi, kriminogen vaziyat, shahar hududiga fuqarolarning kirib-chiqishi hamda chet el fuqarolarining kirib kelishini inobatga olib, Toshkent shahridagi har bir mahallaga kamida ikki nafar profilaktika inspektorlari birlashtirilishi mumkin.*

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2940-son [qarorida](#):

a) 2-bandning [ikkinchi xatboshisidagi](#) "Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi" so'zlari "Jamoat xavfsizligi departamenti" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 4 va 6-bandlar hamda qarorga [1-ilova](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3127-son [qarorida](#):

a) 8-bandning [to'rtinchi xatboshisidagi](#) "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi" so'zlari "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) [9-band](#), 17-bandning [ikkinchi xatboshisi](#) va qarorga [1-ilova](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-son [qarorida](#):

a) 3-bandning [oltinchi xatboshisi](#) "ta'sirchan ishlarni tashkil etish" so'zlaridan keyin "hududlarning kriminogen vaziyatidan kelib chiqib, jinoyat sodir etilmagan mahallalarning ijobiy tajribasini ommalashtirish" so'zlari bilan to'ldirilsin;

b) [3-ilovada](#):

quyidagi mazmundagi 4¹-bob bilan to'ldirilsin:

"4¹-bob. Sektorlar hududida jinoyatlarning oldini olish

13¹. Sektorlar hududidagi barcha mahallalar kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, ushbu Nizomning 13²-bandida belgilangan tartibda har yili yanvar oyida “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi. Bunda:

“yashil” toifadagi mahalla — hududida jinoyat sodir etilmagan mahalla;

“sariq” toifadagi mahalla — hisobot davrida hududida sodir etilgan jinoyatlarning har ming aholi soniga nisbatan salmog‘i tuman (shahar) ko‘rsatkichi bilan barobar yoki undan past bo‘lgan mahalla;

“qizil” toifadagi mahalla — hududida, shu jumladan alohida toifadagi shaxslar, ya‘ni voyaga yetmaganlar, ayollar, ishsizlar, ilgari sudlanganlar, mast holatdagi, profilaktik hisobda yoki ma‘muriy nazorat ostida turuvchi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning har ming aholi soniga nisbatan salmog‘i tuman (shahar) ko‘rsatkichiga nisbatan yuqori bo‘lgan mahalla hisoblanadi.

13². O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Milliy gvardiyasi, Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi hamda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan respublikaning barcha mahallalari har yili yanvar oyida hisobot davrida hududda sodir etilgan jinoyatlar tahlilidan kelib chiqib, “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan har oy yakuni bo‘yicha jinoyatlar statistikasi mahallabay tahlil qilinib, ushbu bandning uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar mahallalar kesimida hisoblab chiqiladi hamda tuman (shahar) bo‘yicha mazkur toifa jinoyatlarning umumiy salmog‘i har o‘n ming aholiga nisbatan shakllantiriladi.

Sektorlar hududidagi mahallalarda oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97, 98, 99, 103, 104, 105, 106, 109, 110, 112, 115, 118, 119, 122, 123, 125, 126, 128, 129, 132, 134, 136, 137, 138, 139, 140, 141, 141¹, 142, 164, 165, 166, 169, 170, 173, 215, 217, 219, 225, 229, 244, 245, 249, 263, 263¹, 267, 269 va 277-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar hisoblanadi.

13³. Sektorlar hududidagi mahallalarda oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar statistikasi ichki ishlar organlari tomonidan har oy yakuni bo‘yicha “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi orqali mahallalar kesimida tahlil qilinadi hamda tegishli idoralarga taqdim etiladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan sektorlar rahbarlariga biriktirilgan hududlardagi “qizil”, “sariq” va “yashil” toifadagi mahallalar to‘g‘risidagi asoslantirilgan tahliliy ma‘lumotlar har chorak yakuni bo‘yicha sektor rahbarlariga kiritib boriladi.

13⁴. Sektor rahbarlari “yashil” toifadagi mahallalarda sektorlar shtabi tarkibiga kiritilgan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni bevosita o‘rganib chiqadi hamda ushbu toifadagi mahallalarning ijobiy ish uslublari, amalga oshirgan tadbirlarini sektorning “sariq” va “qizil” toifadagi mahallalarida ommalashtirish choralarini ko‘radi.

Sektor rahbarlari tomonidan “yashil” toifadagi mahallalarning ijobiy tajribalarni boshqa toifadagi mahallalarga ommalashtirishda quyidagilar samarali tashkil etilganligiga e‘tibor qaratiladi:

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan shaxslar bilan olib borilayotgan tadbirlar;

aholining bandligini ta‘minlash borasida olib borilayotgan tadbirlar;

ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turgan yoxud sog‘liqni saqlash muassasalari hisobiga olingan shaxslar bilan olib borilayotgan tadbirlar;

fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar”;

[17-band](#) quyidagi mazmundagi sakkizinchi va to‘qqizinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“huquqbuzarliklar profilaktikasiga qo‘shgan hissasi.

Sektor rahbarlari faoliyatini baholashda ularning huquqbuzarliklar profilaktikasiga qo‘shgan hissasi natijasida hududidagi “yashil” toifadagi mahallalar salmog‘i yuqoriligiga e‘tibor qaratiladi”;

[sakkizinchi xatboshi](#) o‘ninchi xatboshi deb hisoblansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-son qarori 6-bandining [o‘ninchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Akademiyaning bakalavriat dasturi bo‘yicha kunduzgi ta‘lim shakliga qabul kvotasining 90 foizi bo‘yicha qabul faqat idoraviy akademik litseylar, harbiy akademik litseylar bitiruvchilari, ichki ishlar organlari xodimlari, shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari orasidan amalga oshiriladi”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-son qarorida:

a) 8-bandning “v” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Maxsus budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘larining 10 foizi har yili xizmatda samarali natijalarga erishgan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish uchun ajratiladi, bunda ularni ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirishni ta‘minlash vazifasi Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamenti zimmasiga yuklatiladi”;

b) 1-ilovada:

6-bandning uchinchi xatboshisidagi “amaliy ish stajiga” so‘zlari, 65-banddagi “amaliy ish tajribasini” so‘zlari, 159-bandning ikkinchi xatboshisidagi “amaliy ish staji” so‘zlari tegishincha “amaliy xizmat stajiga”, “amaliy xizmat stajini” va “amaliy xizmat staji” so‘zlari bilan almashtirilsin;

9-bandning birinchi xatboshisidagi “dastlabki va yakuniy tanlovlar” so‘zlari “tanlov” so‘zi bilan almashtirilsin;

10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Nomzodlarni xizmatga tanlab olish tadbirlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: dastlabki o‘rganish (ushbu Nizomda belgilangan umumiy talablarga mos kelishini tekshirish);

jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash;

intellektual rivojlanganlik darajasi va psixosotsial barqarorligini baholash;

yakuniy suhbat.

Yakuniy suhbat davomida nomzodning aqliy salohiyati, xizmat o‘tashga ruhan tayyorligi, kirishimlili, shuningdek, xodim uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan muhim xislatlar baholanadi.

Tanlovda ishtirok etadigan nomzodlarning soni cheklanmaydi. Yakuniy suhbatda, qoida tariqasida, bir lavozimga kamida ikkita nomzod ishtirok etishi lozim.

Yakuniy suhbat natijalariga ko‘ra nomzodning xizmatga ma‘naviy-kasbiy jihatdan mosligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

Tor ixtisoslik bo‘yicha mutaxassislar qatoridan bo‘lgan nomzodlar O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadigan ro‘yxat va tartibda tanlovsiz xizmatga qabul qilinishi mumkin.

Tanlov tadbirlari ularning turlaridan kelib chiqib, tegishli mutaxassislar va vakolatli rahbarlar tomonidan o‘tkaziladi.

Mavjud bo‘sh lavozimlarni hisobga olgan holda tanlab olish tadbirlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildi rasmiylashtiriladi”;

11-bandda:

birinchi xatboshidagi “Dastlabki tanlovlardan” so‘zlari “Tanlovlardan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

12 va 13-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

14-bandning to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

15 — 18-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Quyidagi nomzodlar, istisno tariqasida, tanlab olish tadbirlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bosqichidan ozod etiladi:

ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo‘lganlar;

oliy ta‘lim muassasalarini imtiyozli diplom bilan tamomlaganlar;

professor-o‘qituvchi va ilmiy tarkib lavozimlariga nomzodlar;

ish yuritish, kiberxavfsizlik, axborot texnologiyalari, tahliliy va yuridik ta'minlash bo'linmalariga nomzodlar.

Xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida halok bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarning farzandlari xizmatga qabul qilinishida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda ustunlikka ega bo'ladi.

Ushbu band asosida xizmatga qabul qilish jarayonida yakuniy suhbatdagi nomzodlarning soni ikkitadan kam bo'lmasligi talab etilmaydi.

16. Xizmatga tanlab olish tadbirlari bosqichlarining biridan o'ta olmagan nomzod uni takroran topshirishiga, shuningdek, xizmatga tanlab olish tadbirlarining keyingi bosqichiga qo'yilmaydi.

17. Yakuniy suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan, shuningdek, shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi to'liq rasmiylashtirilib, harbiy-tibbiy komissiya tomonidan xizmatga yaroqli deb topilgan nomzodlar xizmatga qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan boshliqning buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi.

18. Nomzodlarni xizmatga tanlab olish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek nomzodlarning shaxsiy hujjatlari yig'ma jildlarini rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi”;

58-bandda:

“a” kichik band quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Xodim ichki ishlar organlarining shtat jadvali asosida doimiy shaxsiy tarkib sirasiga kiruvchi lavozimda xizmat qilgan davr uning ichki ishlar organlarida amaliy xizmat staji bo'lib hisoblanadi.

Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida o'qish va muddatli harbiy xizmatni o'tash davri ichki ishlar organlarida amaliy xizmat stajiga kiritilmaydi (qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish davri bundan mustasno)”;

“e” kichik band quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasini 2001 — 2004-yillarda bakalavriat dasturi bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklini tamomlagan ichki ishlar organlari xodimlariga, istisno tariqasida, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini tayyorlash va belgilangan tartibda himoya qilish huquqi beriladi”;

127-bandning **birinchi xatboshisidagi** “ilmiy unvoni” so'zlari “ilmiy darajasi va ilmiy unvoni” so'zlari bilan almashtirilsin;

132-band quyidagi mazmundagi ikkinchi — o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Maxsus budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'larining xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga ajratiladigan qismi hisobidan ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni quyidagi shakllarda ijtimoiy himoya qilish kafolatlari ta'minlanadi:

betob xodimlar davolanishi uchun — pul ta'minotining besh baravarigacha bo'lgan miqdorda bir martalik moddiy yordam berish;

xodimlarning betob yaqin qarindoshlarini (ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari) operatsiya qildirish, ortopedik oyoq kiyim va protez-ortopedik mahsulotlar bilan ta'minlash xarajatlarini qoplash uchun — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha bo'lgan miqdorda bir martalik moddiy yordam berish;

sanatoriy-kurort muassasalarida davolanish va dam olish uchun — pul ta'minotining ikki baravari miqdorigacha moddiy yordam berish;

uy-joyga ega bo'lish yoki yashash sharoitini yaxshilash uchun — besh yildan oshmaydigan muddatga bazaviy hisoblash miqdorining ming baravaridan oshmaydigan miqdorda foizsiz qarz berish;

to'ylar va dafn marosimlarini o'tkazish uchun — pul ta'minotining ikki baravarigacha bo'lgan miqdorda bir martalik moddiy yordam berish;

pul mukofoti yoki qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Maxsus budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'larining xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga ajratiladigan qismi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va

kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'i rahbarligida tashkil etiladigan markaziy va hududiy komissiyalarning xulosalari asosida maqsadli sarflanadi.

Xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga sarflangan mablag'lar haqidagi ma'lumotlar xodimlar kesimida maxsus axborot tizimiga kiritib boriladi”.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida”gi PQ-3528-son **qarorida**:

a) 4-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bosh boshqarma boshlig'ining o'rinbosari — Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i — profilaktika inspektorlari va probatsiya xizmatining, eng avvalo, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi samarali faoliyatini tashkil etish, ushbu yo'nalishda barcha sohaviy xizmatlarning o'zaro muvofiqlashgan hamkorligini ta'minlash uchun javobgar”;

b) 7-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

v) 9-bandning **birinchi xatboshisi** “qayta tashkil etilsin,” so'zlaridan keyin “unga axborot xizmati maqomi berilsin hamda” so'zlari bilan to'ldirilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyundagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3786-son qarori 5-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari lavozimi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari lavozimiga o'zgartirilsin hamda uning zimmasiga quyidagilar yuklansin:”.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3919-son **qarorida**:

a) 4-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 6-bandning **uchinchi xatboshisidagi** “Kadrlar bosh boshqarmasi” so'zlari “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti” so'zlari bilan almashtirilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4006-son **qarorida**:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti va uning hududiy bo'linmalari tarkiblarida tegishli Probatsiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari (keyingi o'rinlarda — probatsiya bo'linmalari) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin”;

b) 3-bandning **ikkinchi xatboshisi** “tuman (shahar)” so'zlaridan keyin “ichki ishlar organlari” so'zlari bilan to'ldirilsin;

v) 4 va 5-bandlar hamda qarorga 1 va 2-illovalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

g) 10-bandning **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrda “Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4075-son **qarorida**:

a) 3-bandning **to'rtinchi xatboshisidagi** “Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi” so'zlari “Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida yuridik shaxs tashkil etmagan holda tegishli huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish jamg'armalari (bundan buyon — jamg'armalar) tashkil etilsin.

Belgilansinki:

a) jamg'armalarni shakllantirish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan tegishliligiga ko'ra ularga taalluqli ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha undirilgan (qaysi organ tomonidan undirilishidan qat'i nazar) ma'muriy jarimalar mablag'lari;

jamg'armalarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozit hisoblariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning grantlari hamda qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

b) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi hududiy ichki ishlar organlari jamg'armalariga tushadigan ma'muriy jarimalar mablag'larining 10 foizi hisobidan shakllantiriladi;

v) jamg'armalarning mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan tegishli uchun ularning o'rinbosarlari — jamoat xavfsizligi xizmati (huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati, boshqarmasi) boshliqlari takliflari asosida qabul qilinadigan qarorlariga muvofiq faqat quyidagilar uchun sarflanadi:

ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari xodimlarini rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish;

jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda amaliy yordam ko'rsatgan fuqarolarni bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash yoki qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash";

v) 7-bandning **sakkizinchi xatboshisidagi** "o'n besh foizi miqdorida" so'zlari "kamida yigirma besh foizi miqdorida" so'zlari bilan almashtirilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi "Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4229-son qarori 3-bandining **beshinch xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"transport obyektlari va ularga tutash hududlarda sodir etilgan jinoyatlar bilan bog'liq bahsli materiallarni ko'rib chiqishga doir qaror qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining sohaviy va mintaqaviy nazoratni ta'minlash yuzasidan birlashtirilgan o'rinbosari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi".

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining o'quv markazlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5016-son **qarorida**:

a) 1-bandda:

birinchi xatboshi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi," so'zlaridan keyin "Toshkent shahar hokimligi," so'zlari bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Toshkent shahrining Sergeli tumanidagi A. Qodiriy ko'chasi, 43-uy manzilida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi balansidagi Avtoxo'jalik hududida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Toshkent mintaqaviy o'quv markazini tashkil etish";

uchinchi va **to'rtinchi xatboshilar** tegishincha to'rtinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 2-bandning **birinchi xatboshisidagi** "Jizzax mintaqaviy o'quv markazining" so'zlari "Jizzax mintaqaviy o'quv markazi va Toshkent mintaqaviy o'quv markazining" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 4-bandda:

“a” kichik banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazining” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi va Toshkent mintaqaviy o‘quv markazlarining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“v” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) mintaqaviy o‘quv markazlarida harbiy xizmatchi va xodimlarni hamda vazirlik va idoralarning harbiylashtirilgan va qorovullik qo‘riqlash bo‘linmalarining mutaxassislarini boshlang‘ich tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv jarayoni quyidagi hududlarga taqsimlangan holda tashkil etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi — Toshkent shahri va Toshkent viloyatida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar hamda mutaxassislar uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Farg‘ona mintaqaviy o‘quv markazi — Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar hamda mutaxassislar uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi — Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar hamda mutaxassislar uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar hamda mutaxassislar uchun”;

quyidagi mazmundagi “g” va “d” kichik bandlar bilan to‘ldirilsin:

“g) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Toshkent mintaqaviy o‘quv markazida o‘qish 2022-yilning 1-martidan tashkillashtiriladi;

d) vazirlik va idoralarning harbiylashtirilgan, qorovullik qo‘riqlash bo‘linmalari mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish pullik-shartnoma asosda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni tomonidan belgilanadigan stavkalar (tariflar) bo‘yicha amalga oshiriladi”;

g) 6-bandda:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mintaqaviy o‘quv markazlarining rahbarlari va pedagoglarining harbiy-ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatini umumiy muvofiqlashtiradi”;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashgan o‘quv markazi O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchilar va xodimlarni tayyorlash bo‘yicha tayanch bo‘linma hisoblanadi;

mintaqaviy o‘quv markazlari filial sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashgan o‘quv markaziga biriktiriladi, unga mintaqaviy o‘quv markazlarining o‘quv-uslubiy ta‘minoti hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilish vazifasi yuklatiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi va Ixtisoslashgan o‘quv markazi mintaqaviy o‘quv markazlarining o‘quv-tarbiya jarayonlarini birgalikdagi doimiy (uzluksiz) monitoringini tashkil etadi, uning natijalariga ko‘ra har yarim yilda kamida ikki marotaba o‘quv markazlarining shaxsiy tarkibi bilan o‘quv-uslubiy majlislar o‘tkazish, mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan zamonaviy talablar va ilg‘or chet el tajribasini hisobga olgan holda o‘quv dasturlariga tegishli o‘zgartishlar kiritishni amalga oshiradi”;

d) 7-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“mintaqaviy o‘quv markazlarida ta‘lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo‘riqlash bosh boshqarmasi mablag‘lari hisobidan shartnoma asosida respublikaning yetakchi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarining professor-o‘qituvchilar tarkibi, yuqori malakali

mutaxassisleri hamda ekspertlari, shuningdek, zaxiradagi harbiy xizmatchi va xodimlarni jalb qilinishini”;

e) 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Belgilansinki:

2022 — 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent mintaqaviy o‘quv markazining qurilish, rekonstruksiya va obodonlashtirish bo‘yicha ishlari o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar harbiy-ma‘muriy sektori, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi;

qurilish davrida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi vaqtincha Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Shoxidontepa ko‘chasi, 126-uy manzilida joylashtiriladi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasiga moddiy-texnik va o‘quv-mashq bazalarini mustahkamlash, takomillashtirish uchun respublikaning davlat va tijorat banklaridan kredit olishga ruxsat beriladi”;

j) quyidagi mazmundagi 8¹-band bilan to‘ldirilsin:

“8¹. Tarkibida qo‘riqlash (harbiylashtirilgan, qorovullik) bo‘linmalari mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar har yili 1-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga keyingi yil uchun ushbu bo‘linmalar mutaxassislarini boshlang‘ich tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish rejasini taqdim etib borsin va ularning qat‘iy ijrosini ta‘minlasin”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarori 11-bandining to‘rtinchi xatboshisidagi “professor-o‘qituvchilar tarkibi, ilmiy va o‘quv-yordamchi xodimlarni har oylik moddiy rag‘batlantirishga” so‘zlari “Akademiya xodim va xizmatchilarini moddiy rag‘batlantirish hamda ularni ijtimoiy himoya qilishga” degan so‘zlari bilan almashtirilsin.

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son)